https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Namangan davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining 1-kurs talabasi
Zokirjonov Axrorjon Anvarjon o‘g‘li

OLMOSHDAGI ALLA- QO‘SHIMCHASI — SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHA

Annotatsiya: Bu maqola olmoshdagi alla- qo‘shimchasi haqida. Olmoshdagi alla- qo‘shimchasi bilan ravishdagi alla- qo‘shimchasining qanday o‘xshashliklari va farqlari mavjud? Nega olmoshdagi alla- qo‘shimchasi lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha? Bu yerda ular morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilinib, o‘z qoidalariga o‘z misollari bilan qarshi chiqayotgani ko‘rsatildi va bu muammo va savollarga yechim va takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: morfemika, morfema, leksema, lisoniy birlik, leksik qatlam, affiksatsiya usuli, lingvistika, so‘z turkumi, olmosh, ravish, son, so‘z yasovchi qo‘shimcha, lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha, old qo‘shimcha, morfologik xususiyat.

Annotation: This article is about the suffix alla- in pronouns. What are the similarities and differences between the suffix alla- in pronouns and the suffix alla- in the adverb? Why is the suffix alla- in pronouns a lexical form-forming suffix? Here they are analyzed morphologically and syntactically, shown to contradict their own rules with their own examples, and solutions and suggestions are given to these problems and questions.

Keywords: morphemics, morpheme, lexeme, linguistic unit, lexical layer, affixation method, linguistics, word class, pronoun, adverb, number, word-forming suffix, lexical form-forming suffix, prefix, morphological feature.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Аннотация: В данной статье рассматривается суффикс alla- в местоимениях. В чём сходство и различие между суффиксом alla- в местоимениях и суффиксом alla- в придаточных предложениях? Почему суффикс alla- в местоимениях считается лексическим формообразующим суффиксом? В данной статье они анализируются морфологически и синтаксически, на примерах показываются их противоречия правилам, а также даются решения и предложения по этим проблемам и вопросам.

Ключевые слова: морфемика, морфема, лексема, языковая единица, лексический слой, способ аффиксации, лингвистика, класс слова, местоимение, суффикс, число, словообразовательный суффикс, лексический формообразующий суффикс, префикс, морфологический признак.

Kirish

1989-yil 21-oktabr — o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun. Mana 36 yildirki o‘zbek tilshunosligida izlanishlar tobora chuqurlashib bormoqda. Grammatik qoidalar amaliy va nazariy jihatdan qayta tahlil qilib, ko‘rib chiqilmoqda. Bu esa til sohasidagi muammolarga yechim topishga va o‘zbek tili rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 36 yildan beri juda ko‘p muammolar hal bo‘lganiga qaramay hali hamon yangi muammolar paydo bo‘lmoqda va ularning ba’zilariga yechimlar berilyapti, ba’zilari esa javobsiz qolmoqda. Ayniqsa, morfemika bo‘limi doirasidagi muammolarni o‘rganib, ularni tahlil qilishga bo‘lgan e’tibor undagi tushunmovchiliklarga aniqlik kiritadi.

Asosiy qism

Morfemika — bu tilshunoslikdagi bo‘lim bo‘lib, so‘zning eng kichik ma’noli qismlarini, yani morfemalarni o‘rganadi [Azim Hojiyev O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari Toshkent 2010].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Morfema — (yunoncha: morphe — shakl) o‘ziga xos shakl va ma’noga ega bo‘lgan, boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan, so’z (leksema) yasash yoki so’zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar asosiy vazifasiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi; so‘z yasovchi morfema va so‘zning shaklini yasovchi morfema. So‘z yasovchi morfemalar yangi-yangi leksemalar hosil qilish uchun qo‘llanadi va o‘zbek tili lug‘at (leksik) qatlamining boyishida muhim ro‘l o‘ynaydi. So‘z shakli hosil qiluvchi morfemalar so‘zning qo‘shimcha ma’no ifodalovchi shaklini yasaydi [Azim Hojiyev, Ne’mat Mahkamov O‘zME 2000-2005], yani bir so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklaydi yoki boshqa so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Endi shu bo‘limdagi muammoga etibor qaratamiz.Allamahal — ravish. Alla- so‘z yasovchi qo‘shimchadir. Allakim — olmosh. Alla- lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchadir [Mengliyev B. R. va Habibullayev N. N. — O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati 12-b], nega? Son va olmosh turkumida affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishi uchramaydi, lekin olmoshning morfologik xususiyatida olmosh morfologik usul (so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib so‘z yasash) orqali boshqa turkumdan yasalmaydi deyilgan [O‘zME 2000-2005]. Bu esa olmoshning o‘z ichida ma’lum bir so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali so‘z yalishini rad etmaydi. Alla- qo‘shimchasi ma’no va mazmun farqlash uchun ham xizmat qiladi. Misol uchun: 1) kim keldi? 2) allakim keldi. 1 va 2 gaplar orasida juda katta tafovut mavjud, shu paytda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchani bir eslaylik. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar asosga qo‘shilib uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklaydi va leksik ma’noni biroz o‘zgartiradi[O‘zME 2000-2005]. 1-gap so‘roq, 2-gap esa darak gap hisoblanadi. Bu ikki gapdan har xil vaziyatlarda foydalaniladi va birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi. Qo‘shimchasiga, alla- old qoshimcha hisoblanadi, old qo‘shimchalar esa so‘z yasovchi qo‘shimchalardir. Demak, alla- qo’shimchasini so‘z yasovchi qo‘shimcha deyishimiz mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa:

Yuqoridagilardan shu ma’lum bo‘ldiki morfemika bo‘limidagi muammolarni topib ularni hal qilish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki lingvistik tahlillar, testlar, maktab darsligi uchun ham aniqlik kiritadi. Maqolada ko‘rib chiqilgan masalalarning yechimi sifatida 1) old qo‘shimchalar so‘z yasovchi qo‘shimchalar ekanligi, 2) olmoshning o‘z ichida ma’lum bir qo‘shimchalar qo‘shish orqali so‘z yasalishi mumkinligi, 3) Alla- qo‘shimchasi ma’no va mazmun farqlash uchun ham xizmat qilishi haqida takliflar berildi. Bu qarashlar orqali o‘zbek tilidagi muammo va tushunmovchiliklar kamayib, darsliklar va tahlillarda aniqlik boladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. R. va Habibullayev N. N. — O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati 12-b.

2. Hojiyev A. va Mahkamov N. — O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000.

3. Azim Hojiyev O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari Toshkent 2010.

4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2000-2005.

5. Wikipedia.